

UMUMIY O'RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN KASBIY STANDARTDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

KIRISH

XXI asr global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish asri. Bu davr o'qituvchidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni hamda o'z lavozim majburiyatlari va bu majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni talab qiladi.

Zamonaviy pedagog nafaqat o'z fanini chuqur bilishi, balki pedagogik va psixologik bilimlarga, keng tafakkur va mulohazali qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash, ta'lim jarayonini puxta rejalashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash, samarali qayta aloqani ta'minlash, xavfsiz hamda rivojlantiruvchi muhit yaratish pedagogning asosiy vazifalaridandir.

Mazkur test spetsifikatsiyasi pedagog kadrlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini kasb standartlari asosida aniqlash uchun qo'llaniladigan test topshiriqlarining tuzilishi, mazmuni, kognitiv darajalari, baholash mezonlarini belgilaydi. Pedagog mutaxassislarning faoliyati doirasiga kiruvchi lavozim majburiyatlarini bilish, amalda qo'llash va mulohaza yuritish kompetensiyalarini aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlardan iborat bo'ladi.

Mazkur hujjatga aprobatsiyalar natijasida qo'shimchalar, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

I. Maqsad

Mazkur spetsifikatsiyaning asosiy maqsadi — pedagog kadrlarning **kasb standarti bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini** ishonchli, adolatli, shaffof tarzda baholashni tashkil etish, kasbiy bilim va ko'nikmalarni kasb standarti asosida aniqlash hamda pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlanishga yo'naltirish.

II. Kasb standarti bo'yicha bilimlarni baholashda test sinovida qamrab olingan mazmun sohalari

Kasb standartining mavzu sohalari quyidagilardan iborat:

1. O'quv jarayonini rejalashtirish.
2. Ta'lim samaradorligini ta'minlash (ta'lim dasturini amalga oshirish).
3. O'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish.
4. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish.

5. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash.
6. O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish.
7. Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rmini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik.

III. Kasb standarti bo'yicha bilimlarni baholashda qamrab olinadigan konstruktlar

№	Talablar	Konstruktlar
1	O'quv jarayonini rejalashtirish	O'quv rejalarini ishlab chiqish, dasturlarni moslashtirish, fanlararo kompetensiyalarni integratsiya qilish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, AKTni fanga integratsiya qilishni bilish va amaliyotda qo'llay olish.
2	Ta'lim samaradorligini ta'minlash	O'quvchilar uchun munosib vazifalarni belgilash, dars vaqtidan oqilona foydalanish, AKTdan foydalanish, samaradorlikni tahlil qilish, to'g'ri yondashuvlarni tanlash, faol usullardan foydalanish, o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish, jamoaviy va loyihaviy ishlarni tashkil qilish, differensial yondashish, dars mavzusini amaliyot bilan bog'lash, har bir o'quvchini tinglash, darsga qiziqtirish hamda samarali muloqotni ta'minlashni bilish va amaliyotda qo'llay olish.
3	O'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish	Ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, natijalarni diagnostika qilish, bilim darajasini kuzatib borish, tahlil natijalaridan foydalanish, qo'yilgan bahoni asoslash, o'qishga qiziqtirish, hamkasblar hamda soha mutaxassislari bilan maslahatlashishni bilish, mulohaza yuritish, vaziyatga nisbatan to'g'ri qo'llay olish.
4	Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish	O'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim maqsadlari va vazifalarini belgilash, tarbiyaviy ishlarning zamonaviy usullarini qo'llash, yoshi, jinsi, madaniyatini hisobga olish, odob-axloq qoidalarini belgilash, qo'llab-quvvatlash, bo'sh vaqtlarini tashkil qilish, muloqot o'tkazish, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishni bilish va vaziyatga nisbatan amaliyotda qo'llay olish.
5	Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash	O'zaro hurmat muhiti, teng imkoniyat yaratish, nizoli vaziyatlarni hal etish, xavfsizlik qoidalariga rioya etishga jalb qilish, tahdidlar vaqtida harakatlar ketma-ketligini tushuntirish, aniq ko'rsatmalar berish, individuallashtirish, mediasavodxonlikni bilish, amaliyotda qo'llay olish.
6	O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish	Muntazam malaka oshirish, adabiyotlar bilan tanishish, seminar-treninglarda ishtirok etish, uslubiy kengashlarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, ehtiyojlarni belgilash, kerakli o'zgarishlarni amalga oshirishni bilish.

7	Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik	Hamkasblar va ota-onalarni jarayonga, qaror qabul qilishga jalb qilish, o'quvchining individual ta'lim trayektoriyasi hamda tarbiyaviy muammolarni hal qilishda hamkorlik qilishga undashni bilish, vaziyatga nisbatan amaliyotda qo'llay olish.
---	---	--

Baholanadigan aqliy faoliyat turlari

Test sinovida quyidagi kognitiv darajalar baholanadi:

1. Bilish
2. Qo'llash
3. Mulohaza yuritish

IV. Kasb standarti bo'yicha bilimlarni baholashda qo'llaniladigan test turlari

Y 1 – to'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test;

Y 2 – bir nechta javobli yopiq test;

Y 3 – moslikni tanlashga oid yopiq test;

Eslatma 1: texnik imkoniyatlar tufayli testning ayrim turlari o'zgarishi mumkin.

V. Kasb standarti bo'yicha testlar spetsifikatsiyasi

Mazmun soha	Bo'lim	Topshiriq soni	Baholanadigan aqliy faoliyat turi	Test turi
O'quv jarayonini rejalashtirish	Mehnat harakatlari Zarur ko'nikmalar Zarur bilimlar	1	Bilish	Y2
Ta'lim samaradorligini ta'minlash (ta'lim dasturini amalga oshirish)	Mehnat harakatlari Zarur ko'nikmalar Zarur bilimlar	1	Bilish	Y1
O'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish	Mehnat harakatlari Zarur ko'nikmalar Zarur bilimlar	1	Mulohaza	Y1
Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish/ Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash	Mehnat harakatlari Zarur ko'nikmalar Zarur bilimlar	1	Qo'llash	Y3
O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish/ Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik	Mehnat harakatlari Zarur ko'nikmalar Zarur bilimlar	1	Bilish	Y1
Jami		5		

Eslatma 2: yuqoridagi ko'rsatkichlar (testlar soni, qaror qabul qilish vaqti, ball, qiyinlik darajasi) sinov natijalariga qarab o'zgarishi mumkin.

VI. Kasb standarti bo'yicha bilimlarni baholashda test sinovlari qismlari bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlar

Test sinovlari qismlari	Qamralgan mazmun sohalari	Topshiriq soni	Ajratilgan ball	Baholanadigan aqliy faoliyat
O'qituvchining kasbiy standart talablarini bilishi bo'yicha bilimlarini baholash	I – V	5	10 ball	Bilish – 3 ta Qo'llash – 1 ta Mulohaza – 1ta

Eslatma 3: Kasbiy standartning vaqti mutaxassislik fani bilan umumlashgan xolda belgilanadi, fanidan kelib chiqib 70 yoki 100 daqiqa beriladi.

VII. Kasb standarti bo'yicha bilimlarni baholash uchun test tizimi topshiriqlarini baholash mezonlari

Har bir sinov test turiga qarab turli xil baholash mezonlariga ko'ra baholanadi:

- agar belgilangan javob to'g'ri bo'lsa, 2 ball.
- agar belgilangan javob noto'g'ri bo'lsa, 0 ball.

VIII. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy normativ-huquqiy asoslarlar va adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi Kasb standarti, Toshkent, 2020.
2. PF-5712 (2019) — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida
3. PP-4860 (2020) — Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
4. "Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi faoliyatida kasb standartini qo'llash. O'qituvchi va uslubchilar uchun qo'llanma" (Toshkent, 2022)